

**FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA
IJTIMOIY-MADANIY TEXNOLOGIYALARNING O'RNI****Raxmanov A.M. -***TDIU dotsenti, falsafa doktori (PhD)*

Insoniyat taraqqiyoti tarixida hokimiyat manfaati va ijtimoiy ehtiyojlar uyg'unligini ta'minlash yo'llarini izlab kelgan. Bu o'rinda jamiyat manfaatiga mos keladigan shaxsiy manfaatlar hamda fuqarolar manfaatlaridan kelib chiquvchi umumiy davlat manfaati hisobga olinadi. Davlat qanchalik darajada qudratli bo'lmasin kishilar manfaati va ehtiyojlarini mamlakat miqyosida muvofiqlashtirish kuchi bilangina amalga oshirib bo'lmaydi. "Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati" sari tamoyilining amaliyotga joriy etilishi, ushbu muammoga oid prinsiplarni davlat tomonidan e'tirof etilgan fuqarolik jamiyati institutlarini faoliyatini innovatsion rivojlanishga evristik yondashuv bo'ladi. Ijtimoiy-madaniy sohaga oid muammolarni hal etish va inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash muttasil ravishda o'zgarib turadi. Har qanday sharoitda shaxs manfaatlarini hisobga olish imkoniyati ko'proq mavjud bo'ladi.

"O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish, ularning ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish"[1:11] boshqaruv tizimini takomillashtirish zaruratidan kelib chiqadi. Hozirgi davrda dunyoda demokratik mazmunga ega bo'lgan ijtimoiy boshqaruv hukmron bo'lib bormoqda. Bu ijtimoiy hayotda demokratiyaning ustuvorligi, boshqaruv institutlarining demokratik tamoyillarga asoslanib faoliyat ko'rsatishi hamda shaxs qadr-qimmatini, haq-huquqlarini himoya qilishning kuchliligida namoyon bo'ladi. Demokratiya keng ma'noda davlat boshqaruvining siyosiy usullari, vosita va me'yorlari yig'indisi bo'lsa, fuqarolik jamiyati – aholining manfaatlariga urg'u beriladigan va umumlashtiriladigan jamiyatdir[2:12]. Mazkur xususiyatlar jamiyatning madaniy hayotida fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini rivojlantirish kabi murakkab va serqirra sohaga ham tegishlidir.

Bu borada hukumatimiz tomonidan bir qancha qaror va farmonlar qabul qilindi. Jumladan, 2020 yil 18 fevraldagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5938-sonli Farmonida ta'kidlanganidek, jamiyatda «Obod va xavfsiz mahalla» tamoyilining to'laqonli va samarali joriy etilishida har tomonlama ko'maklashish, oilalar va mahallalardagi ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirishda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan yaqin hamkorligini o'rnatish[3] belgilandi. Bu fuqarolik jamiyati institutlari ijtimoiy-madaniy qadriyatlarni shakllantirish, joriy etish va iste'mol qilishni boshqarish madaniy rivojlanishni ta'minlashdek muhim vazifalarni bajarishni ham bildiradi. Shuningdek, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning 2025 yil 26 dekabrda Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojatnomasida 2026 yilni yurtimizda "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili"[4], deb e'lon qilishi va davlat dasturini qabul qilinishi ham ma'lum darajada amaliy ishlarning natijasida sifatida ko'rishimiz mumkin.

Jamiyatda ijtimoiy-madaniy boshqarish vazifalari fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini xilma-xilligidan, uning bosh maqsadi shaxsning kamoloti va salohiyatini namoyon qilish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdan iborat. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, jamiyatni boshqarish uning a'zolarini ijtimoiy-madaniy ehtiyojlarini qondirish va ularni doimiy rivojlantirib borishdek ikki o'zaro bog'liq va o'zaro belgilangan vazifalarni hal qilishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Jamiyat boshqaruvi madaniy qadriyatlarni yaratish va tarqatishga yo'naltirilgan turli ijodiy jarayonlarni tashkil etish va samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Ushbu vazifalarning samaradorligini hal etilishi fuqarolarning jamiyat madaniy hayotidagi faol ishtirokini ta'minlashga zamin yaratadi.

Ijtimoiy-madaniy texnologiyalarni rivojlanishi ularni samarali boshqarish kabi strategik maqsad davlat hokimiyati organlarining ijtimoiy-madaniy masalasiga bog'liqdir. Zero, bunday

e'tiborning doimiyligi va tadrijiyligi boshqarishdagi ko'zlangan maqsadga erishishning zaruriy sharti hamdir.

Rivojlangan davlatlarda boshlangan ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy o'zgarishlar, turli modernistik qarashlarning, industrial va postindustrial, informatsion jamiyatlar degan g'oyalarning paydo bo'lishi fuqarolik jamiyati haqidagi tushunchalarga ta'sir etadi. G'arb jamiyati va uning qadriyatlari tanazzulga uchramoqda, «fuqarolik jamiyati» eski tushuncha, bugun insoniyat mohiyatan butunlay yangi, keng integratsiya va axborotlashtirishga asoslangan jamiyat tomon bormoqda, unda «umumiy din», «intermadaniyat», «intermuloqot» asosiy qadriyatlarga aylanadi, degan anchayin gipotetik nazariyalar paydo bo'lmoqda. Keyingi davrda G'arbda yuzaga kelgan global inqirozlar ma'naviy tushkunlik, demografik muammolar, diniy va etnik nizolar, ayrim aholi qatlamlari, ayniqsa, yoshlarning, ishsizlarning ommaviy harakatlari tadqiqotchilarning jamiyat haqidagi qarashlariga ta'sir etib, ularni yangi bir ijtimoiy tuzum, ijtimoiy borliq kashf etishga undamoqda.

Bu borada amerikalik faylasuf R.Pantemning «Bouling o'z yo'liga: Amerika hamjamiyatining sinishi va qayta tiklanishi» asarida fuqarolik jamiyati jadal yemirilayapti, degan mazmundagi fikrni bildiradi. Bizningcha, fuqarolik jamiyati tushunchasi hamisha dolzarb. Shuning uchun ham hozir O'zbekiston o'z oldiga demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishni maqsad qilib qo'ygan davlat, jamoat tashkilotlari va tizimlarni shakllantirmoqda. Shuningdek, milliy davlatchilikni shakllantirish, huquqiy demokratik davlatni barpo etish va fuqarolar jamiyatini qaror toptirishdek ulug' orzu-umidlar bilan yashamoqda.

Fuqarolik jamiyati va demokratik huquqiy davlatning fundamental ahamiyatga molik belgi va xususiyatlari, «Ma'rifatli dunyoda, «fuqarolar davlati» deb gapirilmaydi. «Fuqarolar jamiyati» deyiladi. Davlat - boshqa narsa, fuqarolar jamiyati boshqa narsa. Bunday jamiyatda davlat tashkilotlaridan ko'ra jamoat tashkilotlarining qadri balandroq turadi. Kuch ishlatuvchi tuzilmalar, vazirliklar, mahalliy hokimiyat organlari davlat tashkilotlari tizimiga kiradi. Jamoat tashkilotlari esa fuqarolarning ixtiyoriy birlashishi asosida tashkil topadi. Biz bunga erishishga harakat qilmog'imiz lozim»[5:80]. Fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini rivojlantirishning yangicha yo'llari, innovatsion modellari va konseptual-evristik ijtimoiy-madaniy texnologiyalarni ishlab chiqish zarurati vujudga kelmoqda. Shu sababli ham «Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining rolini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 4 may kungi PF-5430-sonli Farmoni qabul qilindi. Unda «...mustaqillik yillarida fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatida erishilgan bir qator yutuqlar bilan birga ushbu sohadagi ishlarning holati amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarda, fuqarolarning siyosiy madaniyati va huquqiy ongini oshirishda, ularning ma'naviy va boshqa nomoddiy ehtiyojlarini qondirishda, ularni faol ishtirok etishiga to'sqinlik qilayotgan qator tizimli muammo va kamchiliklar mavjud ekanligi ta'kidlanadi:

birinchidan, davlatning fuqarolik jamiyati bilan samarali va konstruktiv muloqot mexanizmlari yo'lga qo'yilmagan, nodavlat notijorat tashkilotlarining ehtiyojlari tizimli tahlil qilinmayapti, davlat va jamiyatni yanada rivojlantirishning muhim masalalari bo'yicha o'zaro fikr almashish uchun samarali maydonlar yaratilmagan» [6] ligiga e'tibor qaratilgan. Bu bilan tizimli muammo va kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etish mexanizmi yaratiladi.

Yuqorida ko'rsatilgan tizimli muammo va kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etish, taraqqiyotimizning yangi bosqichida fuqarolik jamiyati institutlarining roli va ahamiyatini oshirish, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari bilan hamkorligini kuchaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha Maslahat Kengashi tashkil etildi. Maslahat Kengashining oldiga bartaraf qilinishi lozim bo'lgan quyidagi muhim vazifalar belgilab qo'yildi. «Davlatning va fuqarolik jamiyati institutlarining mamlakatni yanada jadal va har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan sa'y-harakatlarini birlashtiruvchi zamonaviy, demokratik hamda ochiq-oshkora maydon sifatida ularning yuqori darajadagi tizimli va samarali muloqotini yo'lga qo'yish; o'rta muddatli va uzoq muddatli istiqbolda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning strategik yo'nalishlarini aniqlash va milliy modelini shakllantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish va fuqarolik jamiyati institutlariga ularning xalqaro hamkorligini

rivojlantirishda, ilg'or xalqaro tajribani o'rganishda va ushbu tajribani O'zbekiston sharoitida joriy etishda ko'maklashish» [6] dan iboratdir. Fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini takomillashtirishning innovatsion modellari va konseptual-evristik, ya'ni ijtimoiy-madaniy texnologiyalarini qo'llashni taqozo etmoqda.

Fuqarolik jamiyati institutlari tarkibiga siyosiy partiyalar, ijtimoiy-siyosiy harakatlar, jamoat birlashmalari, nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, oila va uning manfaatlarini aks ettiruvchi tashkilotlar, ta'lim-tarbiya muassasalari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, diniy tashkilotlar, milliy-madaniy markazlar kiradi.

Yuqoridagi fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini rivojlantirish uchun innovatsion modellardan foydalanish hozirgi kunning dolzarb masalasidir. Innovatsion modellardan foydalanish ijtimoiy soha bilan bog'liq texnologiyalarda inson hayoti, unga xizmat ko'rsatishini yaxshilashga qaratilganligi bilan belgilanadi. Fuqarolik jamiyati institutlarida ijtimoiy-madaniy texnologiyalar, xususan innovatsion modellarning afzal jihatlaridan biri uni har qanday yangilikka moslasha olishi, texnologik jarayonni tashkil etadigan alohida yondashuv va amallardagi kamchiliklarni tezda bartaraf etishga qaratilganligida kuzatiladi.

Fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini takomillashtirishning innovatsion modellari sifatida «Yuksalish» umummilliy harakatini tashkil etilganligi uning faoliyati negizida «Ijtimoiy innovatsiyalar laboratoriyasi» formatida fuqarolik jamiyati institutlari vakillarining uchrashuvlarini tashkil etilganligi, ijtimoiy xizmat ko'rsatishning tibbiyot sohasida aholiga zamonaviy «Ijtimoiy dorixona»lar yoki har qanday tashkilot va muassasaning o'z «Virtual qabulxona»larini mavjud ekanligini ko'rsatishimiz mumkin.

Fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini takomillashtirishning innovatsion modellaridan foydalangan holda konseptual-evristik, texnologiyalar qo'llaniladi. Bu fuqarolik jamiyatida shaxs huquqiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy erkinliklarini ta'minlamasdan turib tarkib topmaydi. Shu bilan birga zamonaviy fuqarolik jamiyatining asosiy funksiyasi insonning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish, munosib turmush tarzini yaratish va insonning erkin rivojlanishiga imkon beruvchi sharoitlarni yaratishdan iborat. Shunga ko'ra konseptual-evristik texnologiyalar ijtimoiy-madaniy texnologiyalarning konseptual qismida belgilangan maqsadlarga erishish uchun falsafiy, psixologik va ijtimoiy-pedagogik asoslashni (maqsadni belgilashni) o'z ichiga olgan muayyan ilmiy konsepsiyaga tayanishni nazarda tutadi. Bu eng muhim harakatlar algoritmlarini o'z ichiga olgan ijtimoiy-madaniy texnologik jarayonlarning tizimliliigi va ketma-ketligini aks ettiradi. Maqsadli konseptual-evristik texnologiyalar ijtimoiy-madaniy loyihaning konseptual asoslarini ishlab chiqishdan diagnostika-prognoz-maqsadlar va vazifalarni aniq shakllantirish-sharoitlarni tanlash-muayyan muhitda muayyan obekt bilan rejalashtirilgan natijaga erishishga yordam beradigan tushunchadir.

Bu jarayonda konseptual-evristik texnologiyalar tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, ijtimoiy-madaniy faoliyat texnologiyalarida jamiyatda shaxsni rivojlantirishga, uni tarbiyalashning asosiy ma'nosi sifatida madaniy munosabatlarga qaratiladi. Konseptuallik, ya'ni belgilangan maqsadlarga erishish uchun falsafiy, psixologik va ijtimoiy-pedagogik asoslarni o'z ichiga olgan muayyan ilmiy konsepsiyaga tayanish evristik yo'l hisoblanadi. Ya'ni ijodiy bilim faoliyati ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan[8:218] bo'ladi.

Hamkorlik asosida boshqarish tamoyiliga ko'ra bir tomondan mahalliy davlat boshqaruv organlari, o'z-o'zini boshqaruv organlari, huquq-tartibot organlari, jamoat tashkilotlari va oilalar manfaatlarini muvofiqlashtirib, sifatni amaldagi qonunchilik va xalqaro standartlar asosida ta'minlash lozim. Ikkinchi tomondan, jamoatchilik kengashi hamkorligini nazarda tutadi. Bunda, avvalo, boshqaruv tizimini joriy etish bo'yicha qaror qabul qilish, boshqaruv strategiyasini ishlab chiqish, jamoatchilik kengashini tashkil etish, barcha tadbirlar amalga oshirilishi natijasida erishiladigan yutuqlar haqida xabardor qilish, jarayonlarga doir normativ-huquqiy ta'minotni yaratish, nazorat va hisobot, axborot va javobgarlik masalalarini belgilash bo'yicha yo'riqnomalar, uslubiy tavsiyanomalar, instruksiyalar ishlab chiqish, amalga oshirishning asosiy yo'nalishlarini aniqlash bo'yicha ishchi guruhlarni shakllantirish borasida tavsiyalar amalga oshiriladi.

Qayd etishimiz kerakki, avvallari ijtimoiy hayotda siyosatda, iqtisodda, ma'naviy hayotda keng qo'llanila boshlagan ijtimoiy-madaniy texnologiyalar dastlabki vaqtlarda bunday atama bilan yuritilmagan.

Ijtimoiy soha bilan bog'liq texnologiyalarda inson hayoti va faoliyatini, shuningdek, unga xizmat ko'rsatishni yaxshilashga, samaradorligini oshirishga qaratilgan bunlay faoliyat turini – ijtimoiy-madaniy texnologiyalar deb ataymiz. Ijtimoiy-madaniy texnologiyalarning afzallik jihatlardan biri uning har qanday yangilikka moslasha olishidir. Ular texnologik jarayonni tashkil etadigan alohida yondashuv va amaldagi kamchiliklarni tuzatishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Bunga zamonaviy xizmat ko'rsatish turlari, ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish yoki zamonaviy axborot kommunikatsiyalar, eng muhimi esa, ijtimoiy-madaniy texnologiyalar asosi aholi bilan to'g'ridan to'g'ri va ochiq muloqotlar tashkil etish, jismoniy va yuridik shaxslarni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Bosh vazir virtual qabulxonalariga, Xalq qabulxonalariga murojaat qilish huquqini ro'yobga chiqarish kabi ijtimoiy-madaniy texnologiyalarni misol qilib keltirishimiz mumkin.

Vaholanki, ijtimoiy-madaniy texnologiyalarning ko'lami, ularning yangiligi, ular tomonidan bajariladigan vazifalar, qat'iyligi va texnologiyalarning o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyatini nazarda tutgan holda ijtimoiy-madaniy texnologiyalar klassifikatsiyasini ma'naviy hayot bilan quyidagi ko'rinishlarda bog'liqligini ko'rib chiqishimiz mumkin:

Birinchidan, ob'ektivlik bo'yicha – ijtimoiy tizimni yangilash texnologiyalari sifatida jamiyatning kichik va o'rta tizimlarida transformatsiya texnologiyasi bilan turmush sharoitida inson kapitali ekanligi;

Ikkinchidan, yangilik darajasi bo'yicha – jamiyatning innovatsion o'zgarishlarga (bunda, avvalo, insonlarni ma'nau tayyorligi hisobga olinadi) tayyorligi;

Uchinchidan, ta'sir ko'rsatish xarakteri bo'yicha – ijtimoiy-madaniy texnologiyalarning eng asosiy jihati sifatida o'zgarishlarga nisbatan kreativ yondashuvlarga moyillikni rag'batlantirish (ma'naviy rag'batlantirish), aniq qilib aytganda, bunyodkorlikka tayyorligi kabilarni keltirib o'tish mumkin.

Bundan tashqari ma'naviyatning ijtimoiy-madaniy texnologiyalarda namoyish bo'lishi qat'iylilik va o'zini-o'zi rivojlantirish ko'nikmasi, strategik yoki operativ tayyorlik ko'rinishlarida ham mavjud bo'lishi mumkin.

Yuqoridagilardan ijtimoiy-madaniy texnologiyalarning klassifikatsiyasi haqida aniq xarakterli ma'lumotlar olish o'rinni hisoblanadi. Shu bilan birga ijtimoiy-madaniy texnologiyalar – mehnat uyushmasi texnologiyasi, innovatsion texnologiya, boshqaruvchi texnologiya, shakllantiruvchi texnologiya, rivojlanib boruvchi texnologiya, taktik texnologiyalar bo'limlariga ham bo'linadi.

Jamiyatda ularning barchasi ijtimoiy-madaniy texnologiyalarni asosiy xususiyatlari yoki xarakterli tomonlari uning samaradorligini, ilmiy hajmini, novatorlik va eskirgan texnologiyalarning o'rtasidagi bo'limlarni shakllanishiga xizmat qiladi. Eng asosiysi shaxs ma'naviyatining ma'lum o'zgarishlariga sababchi bo'ladi.

Demak, fuqarolik jamiyatida ijtimoiy-madaniy texnologiyalardan foydalanish fuqarolardan faollik, ratsionallik, mas'uliyatlilik kabi xislatlarni shakllantiradi. Zamonaviy jamiyatda hokimiyatning legitimligi jamiyat tomonidan qadriyatlarini qabul qilishning yorqin ko'rinishi bilan birga fuqarolarning faolligi hisobiga ta'minlanadi. Bunday ijtimoiy-madaniy texnologiyalar fuqarolarning huquq va erkinliklari hisobiga davlat boshqaruv organlari vakolatlarining kengayishiga, xususan mahalliy xokimiyat, ya'ni o'zini o'zi boshqarish organlarining faoliyatini yanada rivojlanishiga olib keladi.

ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида /Расмий нашр/ - Тошкент. Адолат, 2017.
2. Мовлонов Ж.Ё. Фуқаролик жамиятига оид замонавий концептуал дискурсининг асосий йўналишлари (Ижтимоий-фалсафий таҳлил) Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

- илмий илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. Тошкент. 2017. –58 б.
3. 2020 йил 18 февралдаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Жамиятда ижтимоий-маънавий мухитни соғломлаштириш, маҳалла институтини янада қўллаб-қувватлаш ҳамда оила ва хотин-қизлар билан ишлаш тизимини янги даражага олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-5938-сонли Фармони. URL: www.Lex.uz.
 4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. Murojaat sanasi: 26.12.2025, Internet manbaa, URL: <https://president.uz/oz/lists/view/8834>
 5. *И.А Каримов*. Бунёдкорлик йўлидан. Тошкент. Ўзбекистон, 1996. – Б 80.
 6. 2018-йил 4-майдаги “Мамлакатни демократик yangilash jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining rolini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5430 sonli Farmoni. Murojaat sanasi: 04.05.2018, Internet manbaa, URL: <https://lex.uz/docs/-3721649>
 7. М.Х.Тохтаходжаевнинг умумий таҳрири остида. Педагогика фанидан изоҳли луғат. Тошкент. Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси «Фан», 2008. 155 б.
 8. Муминов А.Г. “Янги Ўзбекистонда фуқаролик жамиятининг ҳуқуқий асослари такомиллаштирилиши” Журнал: Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2022, №2, 404-413 бетлар

REZYUME:

Mazkur maqolada fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini rivojlantirishda ijtimoiy-madaniy texnologiyalarning ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: fuqarolik jamiyati, fuqarolik jamiyati institutlari, ijtimoiy-madaniy texnologiyalar.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье анализируется значение социокультурных технологий в развитии институтов гражданского общества.

Ключевые слова: гражданское общество, институты гражданского общества, социокультурные технологии.

RESUME:

This article analyzes the importance of socio-cultural technologies in the development of civil society institutions.

Keywords: civil society, civil society institutions, socio-cultural technologies, innovative model, heuristic technologies.